

BADIIY NUTQ OBRAZLI NUTQ TURI SIFATIDA

*Namangan davlat universiteti
Filologiya fakulteti 3-bosqich
Asqaraliyeva Dilshoda Xojiakbar-qizi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada badiiy nutq usubining obrazlilik haqida fikr yuritiladi. Badiiy matnda uchraydigan ko'chimlar, tasviriyl ifodalar, so'z ma'nolari haqida to'xtalib o'tiladi. Badiiy nutqda o'xshatish, o'xshatish obyekti singari vositalar haqida tushuncha berib o'tiladi.

Kalit so'zlar: ko'chim, badiiy nutq, o'xshatish, leksik vosita, tasviriyl vosita, affikslar, sof o'xshatish.

Annotation: This article discusses the imagery of artistic speech style. It focuses on figurative expressions, stylistic devices, and word meanings found in literary texts. The article also provides insights into similes and their objects as expressive means in artistic speech.

Keywords: figurative expression, artistic speech, simile, lexical device, figurative device, affixes, pure simile.

Davrlar o'tishi bilan ijtimoiy - siyosiy hayotda yangilanish bo'lgani sari badiiy tilda ham yangicha jilolar paydo bo'ladi. Tasviriyl vositalar yangicha mazmun kasb etadi. Tilning o'ziga xos uslubiy bo'yoqlarini namoyon etadi. Shu sababli ham sintaktik figuralar va ko'chimlarni yozuvchilarning tili va uslubi doirasida o'rganish filologiya, xususan tilshunoslik fani oldida hamisha dolzarb va muhim masalalardan biri bo'lib qoladi.

Badiiy tasvir vositalariga ijtimoiy ta'sir usuli mavqeini berishga erishish yozuvchidan katta mahoratni talab etadi. Yozuvchi o'zi bayon qilayotgan fikrni aniq, ta'sirchan va tushunarli qilib yetkazib berish uchun uzundan-uzun ta'rif va tavsiflar o'rniga o'xshatish, kinoya, sifatlash, majoz kabi boshqa tasviriyl vositalardan foydalangan holda lo'nda va aniq qilib tushuntirishga harakat qiladi. "Bunday vositalarni tilshunoslik va adabiyotshunoslikda ifoda tasvir vositalari deyiladi.

Badiiy matnda ko'chimlar turli ko'rinishlarga ega bo'lib ularni ko'pchilik adabiyotlarda "troplar" deb yuritiladi. "Ko'chimlar deyilganda adabiy asarning badiiy qimmatini, ifodaliligini ekspressivlikni kuchaytirish uchun bir narsaning nomini, belgisini ikkinchisiga ko'chirish yoki so'zlarning umuman ko'chma ma'noda ishlatilishi"⁶ nazarda tutiladi.

⁶ Шомақсудов А., Расулов И., Қўнғуров Р., Рустамов Ҳ. Ўзбек тили стилистикаси. –Тошкент: 1974, 236-бет.

So'z ma'nosining ko'chish jarayonlari turli ko'rinishlarda voqe bo'ladi, bu jarayonlar va ularning natijalari sifatida yuzaga keladigan hodisalar, bu hodisalarning turlari, o'ziga xos xususiyatlari kabi masalalar o'zbek tilshunosligida ancha batafsil o'rganilgan. "Badiiy matnning lisoniy tahlili" qo'llanmasida ko'chimlar quyidagicha tasnif qilingan.

1. So'z ma'nosining miqdoriy ko'chishiga asoslangan ko'chimlar: a) giperbola b) meyozis.
2. So'z ma'nosining sifatiy ko'chishiga asoslangan ko'chimlar a) metafora b) metonimiya v) ironiya.

Boshqa tasvir vositalari mazkur ko'chimlarning ko'rinishi sifatida beriladi. "Simvol, jonlantirish, epitet, apastfora-metaforaning, perifraza, sinekdoxa, allegoriya, epitet-metonimiyaning; antifraza, sarkazm-ironiyaning; litota-meyozisning ko'rinishlaridir.

Maxsus ifoda-tasviriy vositalari tilda obrazlilik, hissiylik keltirib chiqaradi. Ulardan foydalanish bilan muallif tinglovchining sezgisiga ta'sir qiladi. Bundan tashqari bayonda qisqalikka, aniqlikka erishiladi. Buning uchun esa ma'lum shart-sharoitlar kerak bo'ladi: birinchidan, notiq ifoda tasviriy vositalarning tabiatini, xususiyatini yaxshi tushungan bo'lishi kerak; ikkinchidan, ifoda tasvir vositalariga, nutqni bo'yash, haddan tashqari ko'p o'rinli-o'rinsiz murojaat qilmasligi kerak. Ularning ishlatish o'rni, payti vazifasini yaxshi tushunish kerak. Aks holda nutq madaniyati buziladi, tinglovchi yoki o'quvchida o'sha nutqga u orqali muallifga nisbatan salbiy munosabat uyg'onishi mumkin.

O'xshatish- badiiy tasvir vosifalaridan biri bo'lib, obyektni orazli, ta'sirchan, konkret va ixcham ifodalash xususiyatlari bilan ajralib turadi.

Sana'tkor qahramonlarni tasvirlashda ularning o'ziga xos individual xususiyatlarini ochishda, ruhiy holatlarni aks ettirishda, tabiat manzaralarini tasvirlashda o'xshatishlardan foydalanadi. Ularni konkretlashtiradi, bo'rttiradi. Kitobxonning diqqatini obrazning ko'rinmas tomonlariga jalb qiladi, asarning g'oyasini ochishga yo'naltiradi.

O'xshatish deb, bir predmet yoki hodisani ikkinchi bir predmet yoki hodisa bilan taqqoslanganda ularning shakli yoki mazmun tomondan obrazli o'xshashligiga aytiladi.

O'xshatish obyekti tasvirlamoqchi bo'lgan predmet, hodisa; o'xshatish obrazi- taqqoslangan predmet, hodisalarning tasviriy vositasi, ikki predmet va hodisaning bir-biriga mos kelishidir.

O'xshatishlarni belgilashda asosan ana shu uch belgining roli katta. Hozirgi o'zbek tilida o'xshatish leksik va grammatik vositalar yordamida hosil bo'ladi.

1. Leksik vositalar. O'xshatish hosil bo'lishida anchagina mustaqil va yordamchi so'zlar ishlatiladi:

a) kabi, singari, qadar ko'makchilari hamda o'xshamoq fe'li vositasida. Bunda predmetlar harakati holati bilan bog'liq bo'lgan bir-biriga yaqin belgilar qiyos qilinadi. Bu ko'makchi har doim o'xshatiladigan predmetni ko'rsatuvchi so'zlardan keyin keladi.

Yomon xotira barmoqqa chiqqan yaraga **o'xshaydi**. Qo'lingni qimirlatishing bilan o'sha la'nati yara bexosdan bir joyga tegib ketadiyu azob beradi.

Kuz – o'lim to'shagida yotgan bemorga o'xshaydi...

Bu misolda ham yozuvchi leksik vosita bilan ko'chim o'xshatish hosil qilgan. Bunda bo'yoqdorlik kuchli tasvirlangan. Kuz faslini to'shakda yotgan bemorga o'xshatmoqda.

Avtomatni aynan menga o'qtalib turgandek, boshimni ichiga tortdim.

Bu misolda ham leksik, ham grammatik o'xshatishlar bor. Misli, bamisoli aynan ravishlari doim o'xshatish obrazini ko'rsatuvchi so'zdan avval keladi.

–Yo'q, bu kulgu emas, kaltakesakning tamoq taqillatishiga **o'xshagan** mudhish bir tovush edi.

b) bog'lovchilardan go'yo ham predmetlar, voqea-hodisalarni bir-birlariga qiyos qilishda tez-tez ishlatiladi. Go'yo yordamchisi ko'proq o'xshatish ergash gapni bosh gapga bog'lash uchun xizmat qiladi.

Ajab, ko'nglim tip-tinch bo'lib qoldi. Shunaqangi osoyishtaki, **go'yo** men yo'qman.

O'xshatishni yuzaga keltiruvchi grammatik vositalar. O'zbek tilida bir nechta affiks borki, ular biror bir predmet belgi yoki holatni boshqalariga o'xshatish, qiyos qilish uchun xizmat qiladi. Ular quyidagilar: -day (-dek), -simon, -ona, -namo, -larcha, -omuz, -cha, -chasiga, -dan, -li.

Bu affikslar, odatda o'xshatish obrazini ko'rsatuvchi so'zga qo'shiladi va biror predmet, belgi yoki holatni shu so'z orqali ifodalangan predmet yoki belgi bilan qiyos qilishga yordam beradi.

Ularning ba'zilar grammatik jihatdan sifat (-simon, -day, -dek, -li) yasovchi affikslar hisoblansa ikkinchi bir xillari ravish (-lar –cha, -omuz, -cha, -chasiga) yasash uchun xizmat qiladi. –ona affiksi belgi bilan bog'liq bo'lgan o'xshatishlar hosil qiladi:

Ba'zilar ovozi pastlatib do'st**ona** maslahat beradi. (O'. Hoshimov "Tushda kechgan umrlar")

-dek: Bu affiks –day ning fonetik variantidir. -dek affiksini olgan so'zda, uning o'rniga –day affiksini almashtirish bilan ma'nosida hech qanday o'zgarish yuz bermaydi.

Adib asarlarida ham bu grammatik vositadan unumli foydalanadi. Quyida grammatik vositalar bilan hosil bo'lgan o'xshatishlarga misollar keltiramiz.

–Bahay? Ota-bola to'rg'ay uyg'onmasdan, poyma-poy kavush**dek** yo'lga tushib qopsizlar? (313-bet)

— Amal—asov **otdek** gap.Qo'lingdan bir chiqardingmi ikki dunyodayam yetolmaysan.

dan chiqish kelishigi qo'shimchasi bilan ham taqqoslash usuli bilan o'xshatish xosil qilinadi.

— Ha, barakalla! Ish boshimizdan oshib yotibdi. Bilasanku,odamlarni.

Senga-ku bir qamchi ham ortiqcha... Ammo odamlar arg'umoq emas-da, qaysar eshak**dan** farqi yo'q. Yuki yengillashdimi, yotib oladi.

— Shaxnoza mening yostig'imni quchoqlab turib, bolalar**cha** sodda quvlik bilan kuldi.

Bu misralarda “bolalarcha” so'zi orqali o'xshatish hosil qilingan.

cha kuchaytirish formasidan foydalangan va Shaxnozani bolaga o'xshatganligi kontekstdan anglashilib turibdi.

Olimlar yer yuzida odams**imon** maymunlar kamayib ketyapti, deb bong urmoqdalar. (Daftar hoshiyasidagi bitiklar)

Boshini bir tomonga tashlagan ko'yi qop-qora kipriklarini gunohkor**ona** prillatib turushi shu qadar samimiy ediki, boyagi “artis**namo**” shopirdan rashk qilganimga o'zim uyaldim.

Bu misolda -namo affiksi orqali o'xshatish hosil bo'lgan. U o'xshatish obrazini ko'rsatuvchi “artist” so'ziga qo'shilib holatni ifodalayapti va qiyos qilishga yordam bermoqda.

Izohlovchi izohlanmish munosabatidagi o'xshatishlar, oddiy va tizimli,logik,to'liq va to'liqsiz o'xshatishlar kabi turlari bor.

— Bo'lmasa bir narsani aniqlab olaylik? U kattalardek salmoqlab gap boshladi. –

Maqsadsiz yashash -hayvonlik!

— Saraton oftobi yondiraman deydi.**Yer-olov, osmon-olov, qirtishlab o'rib olingan bug'doyzordagi guvalalar-olov.**

Bu dunyo muttasil aylanib turadigan murakkab mexanizm.

Yozuvchining bu va bundan oldingi misolini sof o'xshatish deb qaraymiz. Chunki bu misolda leksik so'zlar yoki grammatik vositalar ishtirok etmagan. Dunyoni mexanizmga o'xshatgan. Bu bizning tafakkurimizda hosil bo'lgan o'xshatishdir.

Metonimiya deb voqea-hodisa, narsa-buyumlar o'rtasidagi o'zaro yaqinlik va bog'liqlik asosida ma'no ko'chishiga aytiladi. Metonimiya ham qiyosga asoslanadi.

a) zamon va makonda bir-birini bo'lishini taqozo qiladigan hamda birga qo'llanadigan ikki yoki bir necha predmetdan birining nomi ikkinchisiga ko'chiriladi:

— E, boshingga urasanmi fizikani!

Eng kerakli fan-ku! Kosmosga “**Layka**”ni uchirgan olimlar fizikda!

— Gapini qarang! “**Layka**” uchirilganini men bilmaydigandek.Ensam qotiradi.Taksi haydayman.

keyin, pul yig'ib sobstvenniy “**Moskvich**”olaman. Taksichining puli ko'p bo'ladi.

—Qayoqdan olding?—Dadam g'azab bilan pishqirdi.”**Belomor**”qutisini burnim tagiga tiqishtirdi.

b) bir predmetning nomi shu predmetdagi boshqa bir predmet voqelikka ko'chiriladi.

Umar zakunchi oxirgi so'zlarini tantana bilan e'lon qilib,shu qadar qattiq chapak chaldiki, **zal** tag'in junbushga keldi.

— Voy bechora! Oyim shodon xitob qildi.-Tirik ekanmi?

— Yurganmish. Butun **Nog'ayqo'rg'onga** salom aytibdi.

— Asar muallifining nomi nutqda asar ma'nosida qo'llangan bo'lishi mumkin.Bunday paytlarda mu'allif nomi aytiladi-yu, uning asari yoki asarlari nazarda tutiladi.

Biri olib, biri qo'yib yodaki she'r o'qishdi. **Navoiydan** tortib allaqanday **Xemingueygacha** gapirishdi.

“Jonlantirish – istioraning bir ko'rinishi. Jonlantirish odamlarga xos bo'lgan xislatlarni jonsiz predmetlar, tabiat hodisalari, hayvonot, parranda, qush kabilarga ko'chirish orqali paydo boladigan tasvir usulidir”⁷⁹. «O'zbek tili uslubistikasi»da ham “kishining harakatlari, his-tuyg'ulari, so'zlash va fikrlashlari jonsiz predmetlarga ko'chirilishi” ga jonlantirish deyilishi ta'kidlanadi:

Qish bo'yi yer ostida **uxlab yotgan** yer iliq-issiq oftob nuridan **uyg'onadi-yu**,huzur qilib kerishayotganga o'xshaydi.(202-bet)

Osmonda xoin oy kezar,behayo iljaygancha **harom** nurini sochar, **xiyonatkor** yulduzlar xoinlarcha **ko'z qisishar**, xiyonatkor shamol xoinona **qiqir-qiqir kularedi**.

Bu keltirilgan misollardagi uxlamog, uyg'onmog, harom, xiyonat, ko'z qismoq, qiqir-qiqir kulmog so'zlari insonlarga xos xususiyatlarni aks ettiradi: Olisda, **xo'mraygan** to'da-to'da bulutlar orasida quyosh qontalash nur sachratib bir zum osilib turdi-yu ufq ortiga **dumalab ketdi**.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Каримов И. А. Жаҳон молиявий-иқтисодий инқирози, Ўзбекистон шароитида уни бартараф этишнинг йўллари ва чоралари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2009.

2. Каримов И. А. Мамлакатимизни модернизация қилиш йўлини изчил давоми – тараққиётимизнинг муҳим омилидир // Ишонч, 2010, 8 декабрь.
3. Каримов И.А. Барча режа ва дастурларимиз ватанимиз тараққиётини юксалтириш, халқимиз фаровонлигини оширишга хизмат қилади // Халқ сўзи, 2011, 22 январь.
4. Каримов И. А. Мамлакатимизда демократик ислоҳотларни янада чуқурлаштириш ва фуқоролик жамиятини ривожлантириш концепцияси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2010. – 56 б.
5. Каримов И. А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008. - 173 б.
6. Каримов И. А. Мамлакатимизда демократик ислоҳотларни янада чуқурлаштириш ва фуқоролик жамиятини ривожлантириш концепцияси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2010. – 56 б.
7. Каримов И.А. Барча режа ва дастурларимиз ватанимиз тараққиётини юксалтириш, халқимиз фаровонлигини оширишга хизмат қилади // Халқ сўзи, 2011, 22 январь.
8. Каримов И. А. Ўзбекистон мустақилликка эришиш остонасида. – Тошкент: Ўзбекистон, 2011.
9. Тарихдан сабоқ олиб, замон билан ҳамқадам бўлиб яшаш – бугунги ҳаётнинг ўткир талаби. Президент Ислон Каримов интервьюсидан келиб чиқадиган хулосалар// Халқ сўзи, 2012, 15 май.
10. Президент Ислон Каримовнинг Наврўз байрамига бағишланган тантанали маросимдаги табрик сўзи // Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 2014. 21. 03. – Б. 1.
11. Президент Ислон Каримовнинг “Ўрта асрлар Шарқ алломалари ва мутафаккирларининг тарихий мероси, унинг замонавий цивилизация ривожига роли ва аҳамияти” мавзусидаги халқаро конференциянинг очилиш маросимидаги нутқи // Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 2014. 16. 05. – Б. 1-2.